



## OMON MATJON IJODIDA SHEVA ELEMENTLARI

Xurshida Qodirova

UrDU O'zbek tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi

[xurshida.q@urdu.uz](mailto:xurshida.q@urdu.uz)

Gulasal Bardiyeva

UrDU Filologiya fakulteti 223-guruh talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada Omon Matjon she'rlarida qo'llangan Xorazmning o'g'uz lahjasiga xos so'zlar tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** sheva, lahja, fonetik o'zgarish, turkiy tillar.

**Abstract:** The article analyzes the words characteristic of the Oghuz dialect of Khorezm used in the poems of Amon Matjon.

**Key words:** dialect, dialect, phonetic change, turkic languages.

**Абстрактный:** В статье анализируются слова, характерные для огузского диалекта Хорезма, используемые в поэмах Амона Матжона.

**Ключевые слова:** диалект, диалект, фонетическая смена, тюркские языки.

Omon Matjon zamonaviy o'zbek she'riyatining yetakchi vakillaridan biridir. She'riyatning turli janrlarida muaffaqiyat bilan ijod qilgan shoir tilining shiradorligi, o'zining she'rlarida serjilo ma'nolar ifodasini ko'rsatganligi bilan boshqa ijodkorlardan alohida ajralib turadi. Shoir she'rlaridagi ifodaning ta'sirchanligi va tasvirning aniqligi satrdagi so'zlarning qo'llanishidagi mohirlik bilan bevosita aloqadordir.

Shoir ijodida adabiy til va sheva elementlarining qo'llanishida mutanosiblik ahamiyatlidir. Har bir shoir o'z ijod namunasini adabiy til me'yorlaridan cheklanmagan holda yozishi mahorat abatta, ammo shevalardan foydalanish asarni jonli va hayotiy jozibaga ega bo'lishida katta ahamiyatga ega.

Shevaga oid birliklar adabiy til me'yorlaridan tashqarida, ular milliy til unsurlari sanaladi. Ammo ular oddiy so'zlashuv va badiiy uslubda muayyan bir me'yorda ishlatiladi. Badiiy uslubda qo'llangan shevaga oid unsurlar yozuvchining uslubiy-estetik mqsadiga xizmat qiladi. Xususan, badiiy asarda qahramonning muayyan hududga mansubligini ta'kidlash, mahalliy koloritni yaratish, hayotning realistik tasvirini chizishga yordam beradi. Shuningdek, shevadagi so'z va adabiy tildagi so'z ifodalagan tushunchalarda ayrim nozik farqlar mavjud bo'lganda ham yozuvchi shevadagi so'zlarni afzal ko'rishi mumkin<sup>5</sup>.

Shevalardagi so'zlarni shartli ravishda ikkita: 1-o'zbek adabiy tilida uchramaydigan, faqat shevalarda mavjud so'zlar va 2-fonetik o'zgarishga uchragan so'zlar guruhga ajratish mumkin<sup>6</sup>. Adabiy tilda mavjud bo'lmagan, yoki fonetik o'zgarish asosida berilgan so'zlar ham ma'lum bir hudud aholisiga xos bo'lgan shevalarni ko'rsatib beradi.

<sup>5</sup> Mahmudov N. 10-sinf ona tili darsligi. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 32.

<sup>6</sup> Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 79-80.



Omon Matjon ham o‘z ijodida Xorazm shevalariga xos til birliklaridan o‘rinli foydalanish orqali shevalarimizning o‘ziga xos so‘z boyligini, xorazmliklarning shirin va diltortar lafzini ko‘rsatib bera oladi. Buning isboti sifatida shoirning quyidagi “Sirlarim” she‘ridan olingan bandni keltirish mumkin:

*Har urug‘ning ko‘ksiga  
Mavj iyib, g‘ulu iyib,  
Bo‘lsa kim g‘aflat panoh,  
Toshqin solardim unga man,-  
Sen agar bo‘lganda tog‘,  
Soy agar bo‘lganda man<sup>7</sup>.*

Yuqoridagi misralarda *iyib* so‘zi Xorazm shevalari faol qo‘llanib *yon bosmoq, mehri jo‘shmoq* ma‘nolariga teng kelib boradi. Lug‘atlarda ushbu so‘zning *tarbiyalamoq*<sup>8</sup> ma‘nosini berilgan.

Misralardagi *men* olmoshining *man* shaklida qo‘llanganligi Xorazmning o‘g‘uz lahjasi vakillari nutqida fonetik o‘zgarishga uchragan shaklidir. Ushbu holatni boshqa turkiy tillar misolida ham ko‘rish mumkin. Men olmoshi turk tilida *ben/ban*; ozarbayjon tilida *mən*, boshqird, tatar tilida *min*; o‘zbek, qirg‘iz, turkman, qozoq tilida *men*; uyg‘ur tilida *man*; chuvash tilida *ban*<sup>9</sup> shakllarida qo‘llanadi. Men so‘zida *b* va *m* undoshlarining, *a*, *i* va *e* unllilarining almashinishi orqali turkiy tillarda farqlanishi haqida ozotbayjonlik tilshunos olim T.Haqiyev keng ma‘lumot berib o‘tgan<sup>10</sup>. Turliy tillarda unli tovushlar almashinishi natijasida turli turkiy xalqlarda xos til birliklarining hosil bo‘lishi, ularning ayrimlaridagi *a* unlisining ustunligi qadimgi o‘g‘uz tilining boshqa turkiy tillarga tasiri bilan bog‘lanadi va buni bugungi kunda Xorazm o‘g‘uz lahjalarida ham ko‘rishimiz mumkin.

“Baxshida” she‘rida *bittasi* so‘zining *birisi* shaklida kelishini ham misol qilish mumkin:

*Chal endi avjlaring yildirim toy-ey,  
Do‘mbirang torlari ikki sho‘x soy-ey,  
Bir pardasi yer-ey, birisi oy ey<sup>11</sup>.*

“Samandar” nomli she‘rda *ena* so‘zi uchraydi:

*O, ona tabiat, Hayotning, ey sen go‘zal enasi,  
Nechun nurda iymading inson borlig‘in butkul?!  
Tun birla tongdan uning qorilmish zuvalasi,  
Jismida bahsda emish toabad zulmat va nur<sup>12</sup>!*

*Ena* shevaga oid so‘zi bo‘lib, adabiy tilda *ona*<sup>13</sup> so‘zi bilan izohlanadi. Xorazmning ayrim hududlarida *ona* (Hazorasp t.), ayrim hududlarda *buvi* (Bog‘ot, Shovot t.) so‘ziga nisbatan

<sup>7</sup> Омон Матжон Ёнаётган дарахт. – Тошкент: Ф. Фулом, 1977. – Б.7.

<sup>8</sup> Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 411.

<sup>9</sup> Hüseynova M. Ümumtürk dilləri dialekt və şivələrinin qarşılıqlı integrasiyası. – Bakı: ADPU, 2020. – S. 302-303.

<sup>10</sup> Насиёев Т. Seçilmiş əsərləri, II cild. – Bakı: Elm, 2017. – S. 27.

<sup>11</sup> Омон Матжон Ёнаётган дарахт. – Тошкент: Ф. Фулом, 1977. – Б. 18.

<sup>12</sup> Омон Матжон Ёнаётган дарахт. – Тошкент: Ф. Фулом, 1977. – Б. 37.

<sup>13</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б. 38.



qo'llaniladi. Xorazm viloyatining barcha tumanlarida *qayin onaga* nisbatan ham *ena / ana* shakllaridan foydalaniladi.

Shoirning “Orolga yordam” deb nomlangan she’rida keltirilgan bevosh so‘zini keltirish mumkin:

*Orol qurimaydi. Ammo Osiyo*

*Yoz ham yopinchiq’in qo‘ymaydi endi.*

*Bevoshroq bulutlar – iqlimi g‘avg‘o*

*Dalalarning cho‘g‘in qo‘ymaydi endi<sup>14</sup>.*

Shoirning “Yer ekkanning ming ranji, bir hazi bor” nomli she’ridagi *hazi* so‘zi xorazm shevasiga xos bo‘lib, o‘zbek adabiy tilidagi *rohat* so‘ziga teng bo‘ladi. Buni biz she’rdagi ma’nosidan anglasak bo‘ladi:

*Yer ekkanning ming ranji, bir hazi bor,*

*Ko‘zim yo‘lda, ko‘nglim yorda shu kunlar,*

*Ne umrlar paxtazorda shu kunlar.<sup>15</sup>*

*Haz* so‘zi *maza*, *ajoyib*, *yaxshi<sup>16</sup>*; *kayf*, *lazzat<sup>17</sup>* kabi ma’nolarda qo‘llaniladi.

“O‘layotgan ajdaho” she’rida ham shevalarimizga xos so‘zlarni uchratamiz:

*Quyonglarga juda o‘ch-da,*

*Ichida eng irisi...<sup>18</sup>*

She’rda *irisi* so‘zi hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi *kattasi*, *yirigi* ma’nolariga teng.

O‘zbek xalqining sevimli shoiri Omon Matjon o‘z ijodi bilan serqirra va serjilo ona tilimizning boyligini ko‘rsatib beradi. Shoir she’rlari til xususiyatlarini o‘rganish orqali uning ijodi bilan yanada yaqindan tanishib olishimiz mumkin. Shoir ijodini o‘rganar ekanmiz, uning so‘z qo‘llashdagi mahorati, qanchalik boy tajribaga ega ekanligini anglash qiyin emas. Yuqorida keltirilgan so‘zlar Xorazm shevalariga xos so‘zlar bo‘lib, ularni keltirish orqali badiiy asar tilining hayotiy, jonli chiqishi ta’minlangan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – B. 79-80.
2. Hacıyev T. Seçilmiş əsərləri, II cild. – Bakı: Elm, 2017. – S. 27.
3. Hüseynova M. Ümumtürk dilləri dialekt və şivələrinin qarşılıqlı inteqrasiyası. – Bakı: ADPU, 2020. – S. 302-303.
4. Mahmudov N. 10-sinf ona tili darsligi. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – B. 32.
5. Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА, 1964. – Б. 93.

<sup>14</sup> Омон Матжон Ўртағамизда биргина олма. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. Б. 16.

<sup>15</sup> Омон Матжон Ўртағамизда биргина олма. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. Б. 10.

<sup>16</sup> Абдуллаев Ф.А. Ўзбек тилининг Хоразм шевалари. – Тошкент: ЎзФА, 1964. – Б. 93.

<sup>17</sup> Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 283.

<sup>18</sup> Омон Матжон Ўртағамизда биргина олма. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990. Б. 42.



6. Омон Матжон Ёнаётган дарахт. – Тошкент: Ғ. Ғулом, 1977.
7. Омон Матжон Ўртамизда биргина олма. – Тошкент: Ёш гвардия, 1990.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020.
9. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 283.
10. Ўзбек халқ шевалари луғати. – Тошкент: Фан, 1971. – Б. 411.